

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG “QOR UCHQUNLARI” SHE’RINING BADIY VA LINGVISTIK TAHLILI

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg-o'zbek var rus adabiyoti osmonidagi yorqin yulduzlardan biri,shoir,ssenariynavis,tarjimon.U butun dunyo kitobxonlari qalbiga o'zining go'zal asarlari bilan kirib borgan va chuqur joy egallagan.Shoirning bir nazmiy yoki nasriy asarida jamlangan badiiy va falsafiy ma'noni yoritish uchun butub bir asar yozish mumkin.Bu maqola ijodkor qalamiga mansub “Qor uchqunlari” she'rining adabiy ,lingvistik tahliliga bag'ishlanadi.

Abstract: Alexander Arkadevich Feinberg is one of the brightest stars in the sky of Uzbek and Russian literature, a poet, screenwriter, translator. He has entered the hearts of readers around the world with his beautiful works and has taken a deep place. An entire work can be written to illuminate the artistic and philosophical meaning contained in one poetic or prose work of the poet. This article is devoted to the literary and linguistic analysis of the poem "Sparks of Snow" by the author.

Аннотация: Александр Аркаевич Файнберг — одна из самых ярких звёзд узбекской и русской литературы, поэт, сценарист, переводчик. Своими прекрасными произведениями он покориł сердца читателей по всему миру и занял глубокое место в их сердцах. Для раскрытия художественного и философского смысла, заложенного в одном поэтическом или прозаическом произведении поэта, можно написать целое произведение. Данная статья посвящена литературно-лингвистическому анализу стихотворения автора «Снежинки».

Kalit so'zlar: bo'ron, sevgi, tabiat, shahar, she'riy obraz, falsafiy ohang, til uslubi, metafora.

Keywords: storm, love, nature, city, poetic image, philosophical tone, language style, metaphor

Ключевые слова: буря, любовь, природа, город, поэтический образ, философский тон, стиль языка, метафора.

Aleksandr Arkadevich Faynberg O'zbekistonda tug'ilib o'sgan rusiyzabon shoirlardan sanaladi.Garchi shoir o'zbek adabiyotini mukammal bilgan,Alisher Navoiy,Erkin Vohidov,Omon Matjon kabi taniqli ijodkorlar asarlarini o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilgan bo'lsa-da,u o'z she'rlarini ona tili bo'lmish rus tilida yozadi.U

she'rlarining falsafiy,badiiy,lingvistik jihatdan boyligi va yangicha tasvir uslublarini adabiyotga kirgizgani bilab zamondosh shoirlardan farq qiladi.Shoirning "Qor uchqunlari" she'ri ham mana shunday xususiyatlari bilan o'quvchini o'ziga jalb etadi.

Moskvada yanvar.

Bo'ron jaranglaydi yerosti bo'ylab.

Qayoqqa,sevgim?

Markaziy telagraf.Har bir zinada

Qotib qolgan ayoz moviyrang.

Ularni oralab

Chiqaman peshvoz-

Odam to'la shahar.

She'r xuddi shu misralar bilan boshlanib dastlabki satrlardanoq tabiat tasvirini inson ruhiy kechinmalariga bog'laydi."Bo'ron jaranglaydi yerosti bo'ylab" singari satrlar zamonaviy metropolitenning sovuq,murakkab muhiti orqali shoir ichki kayfiyatini ko'rsatadi. Yerosti yo'li bu o'rinda metaforik ma'noda qo'llanilgan bo'lib,lirik qahramon qalbining chuqur qatlamlarida yuz berayotgan tartibsizlik va hissiy almashinuvlarning ifodasidir.Bu vaziyatni vaqt va makon oralig'idagi ichki bo'ronning badiiy ko'rinishi desak ham bo'ladi.

She'rni o'qish davomida qor,bo'ron,yorug' do'kon oynalari kabi tasvirlarga bod-bod ko'zimiz tushadi.Bu ifodalar orqali yurakda kechayotgan hissiyorlar bayon etiladi.Masalan, "Yanvar qori labni kuydirar" qatori sovuq va qayg'uli tuyg'ular orqali yurakdagi ezgulikka qarshi kurash holatini ifodalaydi.

Sevgi va yo'qotish motivlaridan mohirona foydalanib ijodkor o'zi yozayotgan she'r badiiy saviyasini yanada oshiradi. Ushbu misradagi ma'noga bir e'tibor qaratayliga:

"Sen bunda-yo'qsan.-Hamma yoqdasan."

Shoir bu bilan sevgi obyektining jismonan mavjud emasligiga qaramay,uning ta'sirini har qaysi sahnada-shaharlar,sayohatlar,tabiat kechinmalarida qaytadan namoyon bo'lib boraverishiga sekin ishora qiladi.

Sen u yerda yo'qsan –

Hamma yoqdasan.

Sevgim mening. Eng so'nggi sevgim.

Suvorov xiyoboni.

Qorlar uyumi .

Yurak hapqiradi parvozdan.

Ko'rayapman-

Arbatga yo'l olding,yoshligim.

Tortqilaydi paltong etaklarini

Socholib-sochilib ketayotdan qor.

Bu badiiy figura Faynberg ijodiya xos bo'lgan o'ziga xos falsafiy qarashni ,ya'ni sevgining abadiy makondan mustaqil tabiatini ifodalaydi.

She'rda sayohat va joy obrazlari ham talaygina. Misol qilib Sheremetevo aeroporti, Nyu-York, Amsterdam kabi joylar keltirgan bo'lib, ular nafaqat makon, balki vaqt, yo'l, xotira orasida uzluksiz davom etuvchi harakatni ramziy ma'noda ifodalab ham kelgan. Bu manzillar shoir ichki kechinmalari va real makonlar o'rtasida bo'liqlikni vujudga keltiradi.

Sheremetevo-yanvar o'rmonlarida.

Balandlab boradi o'choqlar

Yo'l solib-

Nyu-York, Amsterdam.

Suxandon yapon tilida:

“Tokioga qo'ndik”- beradi xabar.

Shundayin kichik yer-

Shuncha ko'p davlat!

Sen esa-yolg'izsan.

Hech qayerda yo'qsan- hamma yerdasan.

Faynberg asarlari metafora va ramzlardan foydalanishdagi ustalik bilan ham e'tiborga molik. Masalan she'rning dastlabki satrlarida keltirilgan “qotib qolgan ayoq moviyrang” jumlasiga to'xtalsak. Bu tasvir hissiyotlarni rang va holat orqali ko'rsatib berishga yo'naltirilgan bo'lib, inson Ich-ichida tug'yon urayotgan sovuq hislarni ifodalaydi. Yoki bo'lmasam “oppoq qor uchquni qo'lpoqlaringda” misrasini olsak. Bu yerda sevgi his-tuyg'ulari erib ketayotgan tuyg'u sifatida tasvirlab beriladi. Bu kabi metaforik qurilmalar kitobxonga asarda tasvirlanayotgan voqea va holatni osongina tasavvur qilishga yordam beradi va she'rni visual hamda hissiy jihatdan til orqali boyitadi.

Voykoviyskiy, ehtimol, Tagan

Yerostida yo'lida mayin yel

Sochlaringni shovdiratadi.

Shovqin solib moviy eshiklar

Xo'rsinib-xo'rsinib qo'yadi og'ir.

Olislaysan marmar ustundan,

Seni olib ketadi poyezd.

Tikilasan- oynada aksing,

Yanoqlaringda

Erib ketar qor parchalari.

Sen bunda-yo'qsan.

-hamma yoqdasan.

She'rda takroriy struktura-masalan :”Sen bunda-yo'qsan.-Hamma yoqdasan.”-

bu takroriy struktura lingvistik ritm yordamida repetitiv ohangni, ya'ni qalbdagi xotira va hissiyotlarning takrorlangan holatini ifodalash uchun foydalaniladi. Shu bilan bir qatorda, mana shu takrorlash she'rga muqaddas, qayta-qayta yo'lga qaytiladigan xotira tuyg'usini beradi.

Faynberg rus tilida ijod qilgan bo'lsa-da, uning asarlarida, she'rlarida o'zbek adabiyoti an'analari yaqqol ko'zga tashlanishini ham rad etolmaymiz. "Qor uchqunlari" she'ri misolida ham yengil o'zbekcha ritm va manzaralarni ham ko'rishimiz mumkin. "Arbat", "Suvorov xiyoboni" kabi joy nomlari orqali shoir o'zbek madaniyati va milliy shahar psixologiyasiga xos xususiyatlarni o'quvchiga chuqur his ettiradi va xalqimiz haqida kichik bo'lsa ham tasavvurni hosil qildiradi. Bu lingvistik moslashuv uslubi she'rga multikulturlik va zamonaviylik hissini beradi.

She'rda so'z faqat muhabbat va yo'qotish haqidagina ketib qolmay, inson tabiatiga xos bo'lgan vaqt, zamon, makon va xotira munosabatlari yuzasidan ham falsafiy mushohada yurutadi va kitobxonlarni ham bu haqda o'ylashga undaydi. Darhaqiqat, sevgi yo'qolishi mumkin, lekin u izsiz ketmaydi. Bu mazmun esa inson ichki qiyofani va tuyg'ular abadiylikni belgilab beradi. Bu hammasi she'rni shunchaki yuz berayotgan voqea emas, falsafiy monologga aylantiradi.

Yana jimib qolar ko'tarilgan qo'l.

Poshnalaringdan uchib – qo'nayotgan

Qorli changlar — yulduz to'la yo'l.

Shom tushib kelmoqda. Yer bag'ri — yanvar.

Archamdagi sharda — ayoq yulduzi.

U meni chorlaydi bo'ronlari sari,

Seni uchratarmu? Ortingdami u?

Kechir, bilolmayman qachon, qaerda —

Uchrasharmiz yo?

Qorni tebratadi olis ko'priklar.

Samoga o'rlaydi qor uchqunlari —

ulkan parvoz oldidan

so'nggi yo'lga chiqayotgan

qush qanotlari.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Aleksandr Arkadevich Faynberg qalamiga mansub ushbu she'r sevgi, yo'qotish, vaqt va makon o'rtasidagi nozik bog'liqlikni tasvirlovchi falsafiy hamda badiiy va lingvistik qurilmalar mohirlik bilan foydalanilgan ajoyib asardir. Unda ishlatilgan tabiat manzaralari, sevgi va yo'qotish motivlari, atmosfera va ruhiy holat tasvirlari, shuningdek shoirning sharq va g'arb she'riyati hamohangligida ijod qilganligini ko'rsatuvchi milliy shahar va joy tasvirlari o'quvchiga yanada zavq, o'zbek xalqiga esa g'urur bag'ishlaydi. Ayniqsa, she'rda foydalanilgan til uslubi va metafora kabi qurilmalar uning adabiy rangba-rangligini

ta'minlab, o'qish uchun oson va ravon qiladi. Shu sababli bu she'rni butun maqolada yoritish ham qiyin, aslida.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. «Alexander Feinberg: Life and Creative Legacy», inLibrary. InLibrary
2. «Alexander Feinberg: Life and work», uzswlu. UzSWLU.Uz
3. «Aleksandr Faynberg — qalbi o'zbek shoir», IJSR maqolasi. worldlyjournals.com
4. «Aleksandr Faynberg she'riyatining falsafiy va badiiy tahlili». Scientific Journal
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
6. <https://arm.samdhti.uz/library/download/692>